

**DAVLAT ULUSHI ISHTIROKIDAGI JAMIYATLARDA MHXS ASOSIDA  
BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH VA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI  
TUZISH TARTIBI**

Fayziev Mehriddin Rajabovich

**Annotatsiya.** *Mazkur dissertatsiya korxonalar va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning ahamiyati, ularning xalqaro standartlarga mos ravishda yuritilishi va moliyaviy axborotning aniqligini ta’minlash usullari tahlil qilinadi.*

**kalit so‘zlar:** *Buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, moliyaviy axborot, buxgalteriya tizimi.*

**Abstract.** *This dissertation is dedicated to studying the theoretical and practical aspects of accounting practices and the preparation of financial statements in enterprises and organizations. The research analyzes the significance of accounting and financial reporting, their compliance with international standards, and methods for ensuring the accuracy of financial information.*

**key words:** *accounting, financial reporting, international standards, financial information, accounting system*

## KIRISH

Har yili ko‘pgina o‘zbek tashkilotlari moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlash va taqdim qilishga ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Ushbu standartlar asosida tegishli iqtisodiy qarorlar qabul qilish mumkin. MHXSga muvofiq hisobot tuzish zarurati nima bo‘lishidan qat’iy nazar, tashkilot rahbariyati ushbu muammoni hal qilishning eng yaxshi usulini tanlashi kerak.

Hozirga qadar aksariyat o‘zbek tashkilotlari moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiq o‘zbek moliyaviy hisobotlari ko‘rsatkichlarini transformatsiya qilish orqali tayyorlaydilar. Ushbu usulni tanlash bir lahzalik ehtiyojlarni qondirish bilan izohlanishi mumkin: dolzarb muammoni tez hal qilish zarurligi, mavjud bo‘lgan o‘zbek hisobotini tuzatishga harakat qilish tabiiy bo‘lsa ham, tuzatilgan ko‘rsatkichlar xalqaro standartlar talabiga javob beradigan qilib tayyorlanadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ular MHXSni biladigan mutaxassislarini yoki o‘zbek hisobotlarini xalqaro standartlariga transformatsiya qilish bilan shug‘ullanadigan konsalting kompaniyalarni yollaydilar.

## MUHOKAMA VA TAHLIL

Buxgalteriya hisobi — xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mahsulot (ish va xizmat)lar sotish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmui bo‘lib, u subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining holatini ma’lum davr (chorak, yillik) ga qiymat ko‘rinishida aks ettirishidir.

Ma’lum bir davrga hisob ko‘rsatkichlarini umumlashtirish hisobot deb atalib, unda korxona moliya xo‘jalik faoliyatining natijasi va ma’lum bir davrga reja ko‘rsatkichlarining

bajarilishi buxgalteriya, statistik va operativ (tezkor) hisobi ma'lumotlariga asoslanib tuziladi.

Hisobot kundalik hisob ma'lumotlarini hisoblash va guruhlash yo'li bilan bir necha shakllarda tuziladi. Uning shakllarida hisobot davridagi faqat haqiqiy joriy ma'lumotlarga emas, balki o'tgan davr ma'lumotlari ham ko'rsatiladi.

Buxgalteriya hisobi subyekti moliyaviy hisobotni tuzishda mustaqil balansga ajratilgan o'z vakolatxonalarini, filiallari va boshqa tarkibiy bo'linmalarining buxgalteriya balanslarini hamda boshqa hisobot shakllarini kiritishi kerak.

–Moliyaviy hisobot hisobot yili boshidan ortib boruvchi yakun bilan tuziladi.

–Byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tuziladi va taqdim etiladi.

–Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

–Banklar va boshqa kredit tashkilotlari moliyaviy hisobotining tarkibi hamda mazmuni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Moliyaviy hisobot kimga mo'ljallangan? AQSHda bu savolga, odatda, — kreditorlarga, aksiyadorlarga va boshqa investorlar deb javob berishadi. FASB (Financial Accounting Standards Board — AQSHda moliyaviy hisobot standartlarini qayta ishslash markazi)da ko'rsatilishicha, moliyaviy hisobot investorlar, kreditorlarga, shuningdek, boshqa foydalanuvchilarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Boshqa foydalanuvchilar deganda, korxona xodimlari va mijozlari, shuningdek, moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan ikkilamchi foydalanuvchilar tushuniladi.

Hisobotdan korxona rahbari, xo'jalikni ichki boshqarishning barcha bo'limlari va tashqi foydalanuvchilar (bank, soliq, sug'urta tashkilotlari va mol yetkazib beruvchilar, tashabbuskilar, investorlar, aksiyadorlar) tomonidan to'g'ri foydalanimishi uchun u quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

Korxona faoliyatini aniq, to'g'ri va oddiy qilib aks ettirish.

O'z vaqtida tuzish va tegishli tashkilotlarga kechiktirmasdan topshirish.

Hisobot ko'rsatkichlarining reja ko'rsatkichlariga moslashganligini aks ettirish va ularni taqqoslash.

Reja va hisob ma'lumotlari o'z iqtisodiy mazmuni hamda hajmiga ko'ra bir xil bo'lishi kerak. Bunday taqqoslashni ta'minlash uchun quyidagi shartlar zarur:

a) o'tgan davr xronologik davrning mos kelishi hisobotda va hisob ma'lumotlari ma'lum bir davrni yoki ma'lum bir vaqtini aks ettirishi lozim;


b) o'tgan davr va joriy davr obyektlarining bir xil guruhlanishi;

v) o'tgan davr va joriy davr hisob guruhlarining bir xil usulda aniqlanishi;

d) bahoning bir xil bo'lishi.

O'tgan davr ko'rsatkichlari bilan hisobot davri ko'rsatkichlarini taqqoslash. Hisobot va hisob ma'lumotlarining haqiqiyligi bilan to'g'ri kelishini inventarizatsiya yo'li bilan tekshirib turiladi, bu esa ko'rsatkichlarni haqiqatda qanday aniqlab va obyektiv bo'lishini ta'minlaydi.

Moliyaviy hisobotning tayyorlash jarayoni xalqaro amaliyotda to'rt bosqichga bo'lish qabul qilingan.



#### 4.1.1-rasm. Hisobotning ahamiyatiini belgilovchi omillar

Manba. Muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan


Korxonaning yillik buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga topshirishidan oldin, tashis hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" qonunining 22-moddasiga ko'ra, moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi subyektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir.

Yillik moliyaviy hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- pul oqimlari haqidagi hisobot;
- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Xalqaro standartlar bo'yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi.

#### 4.1.2-rasm. Yillik moliyaviy hisobot tarkibi.



Manba. Muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan

XULOSA

Buxgalteriya hisobini yuritishda MHXS (Moliya Hisoboti va Hisobga olish

Standartlari)ning ahamiyati, shuningdek, xalqaro hisob standartlariga muvofiqlikni ta'minlashdagi roli o'rganildi. Tadqiqotda MHXSga muvofiq hisob va hisobotni yuritish jarayonlari aniqlangan.

Davlat ulushi ishtirokidagi korxonalar uchun buxgalteriya hisobi yuritish tizimining xususiyatlari o'rganilib, hisoblarni yuritish jarayonidagi muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rsatildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

16. Abdurazzakov, B. (2017). Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
17. Akramov, A. (2015). Xalqaro buxgalteriya standartlari. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
18. Anvarov, B. (2018). Buxgalteriya hisobi tizimini boshqarish. Tashkent: Moliya va iqtisodiyot fakulteti.
19. Ashurov, S. (2020). Davlat ulushi ishtirokidagi jamiyatlarda moliya hisobini yuritish. Tashkent: Yuridik fakultet.